

QURILISHDA NARXLARNI SHAKLLANISHI VA SMETA ISHI

Siddiqov Mo‘minjon Yunusovich

Jizzax politexnika instituti dotsenti

siddikovmomin@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurilishda narxlarning shakllanish jarayoni, unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, smeta hujjatlarini tuzishning tartibi va metodikasi tahlil qilinadi. Qurilish sohasida iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda narxlarni to‘g‘ri belgilash va asoslangan smeta tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekistonda amalda mavjud me’yoriy hujjatlar, zamonaviy baholash usullari va raqamli texnologiyalar asosida smeta ishlari olib borilishining ustunliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *qurilish iqtisodiyoti, narxlar shakllanishi, smeta, me’yoriy hujjatlar, baholash usullari, texnik-iqtisodiy asos, raqamli texnologiya, qurilish sohasi.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕН В СТРОИТЕЛЬСТВЕ И СМЕТНОЕ ДЕЛО

Сиддиков Муминжон Юнусович

Доцент Джиззакского политехнического института

siddikovmomin@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы формирования цен в строительстве, внутренние и внешние факторы, влияющие на них, а также порядок и методика составления сметной документации. Правильное ценообразование и обоснованное составление смет играют важную роль в обеспечении экономической эффективности строительной отрасли. В статье также освещаются действующие в Узбекистане нормативные документы, современные методы оценки и преимущества применения цифровых технологий в сметных работах.

Ключевые слова: *экономика строительства, формирование цен, смета, нормативные документы, методы оценки, технико-экономическое обоснование, цифровые технологии, строительная отрасль.*

PRICE FORMATION IN CONSTRUCTION AND COST ESTIMATION

Siddikov Muminjon Yunusovich

Associate Professor at Jizzakh Polytechnic Institute

siddikovmomin@gmail.com

Abstract: This article examines the processes of price formation in the construction industry, internal and external factors influencing it, as well as the procedures and methodology for preparing cost estimate documentation. Accurate pricing and well-grounded cost estimation play a crucial role in ensuring the economic efficiency of the construction sector. The article also highlights the existing regulatory documents in Uzbekistan, modern valuation methods, and the advantages of using digital technologies in cost estimation activities.

Keywords: *construction economics, price formation, cost estimate, regulatory documents, evaluation methods, techno-economic justification, digital technologies, construction sector.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida qurilish sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida infratuzilma ob'ektlarining barpo etilishi, aholining uy-joy bilan ta'minlanishi, sanoat, transport va xizmat ko'rsatish inshootlarining qurilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarda qurilish sohasining samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bu – narxlarning asosli shakllanishi va smeta ishlarining tizimli tashkil etilishidir.

Qurilishda narxlarni shakllantirish murakkab iqtisodiy va texnik jarayon bo'lib, u pudratchi va buyurtmachi o'rtasida to'g'ri moliyaviy munosabatlarni yo'lga qo'yishga, ob'ekt qiymatini aniqlashga, rejalashtirish, moliyalashtirish va nazoratni tashkil etishga xizmat qiladi. Shu sababli qurilishda narxlarni shakllantirish va smeta ishlarini boshqarish faqatgina texnik emas, balki iqtisodiy va huquqiy bilimlarni talab qiluvchi strategik jarayon hisoblanadi¹.

Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan urbanizatsiya jarayonlari, yirik infratuzilma loyihalarining ko'payishi, davlat-xususiy sheriklik asosidagi qurilish loyihalari, mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokining ortib borishi narxlash tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda². Smeta hujjatlari esa

¹ O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. "Qurilish ishlarining bazaviy narxlari to'g'risida"gi nizom. – Toshkent, 2022.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4427-sonli qarori. "Qurilish sohasini raqamlashtirish va smetalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – 2019 yil 23-avgust.

qurilishning har bir bosqichida iqtisodiy samaradorlikni baholashda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, qurilishda narxlar shakllanishi va smeta tizimida hal etilmagan muammolar ham mavjud. Jumladan, narxlarning tez-tez o'zgarib borishi, bozor narxlari va smeta me'yorlari o'rtasidagi tafovut, normativ-huquqiy bazaning eskirganligi, zamonaviy smeta dasturlaridan foydalanish darajasining pastligi kabi holatlar amaliyotda ko'plab qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qurilish sohasida narxlar shakllanishi va smeta ishlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-texnik hamda metodik adabiyotlar so'nggi yillarda salmoqli darajada rivojlanib bormoqda.

Mahalliy adabiyotlar ichida Davletov I. tomonidan yozilgan "Qurilish iqtisodiyoti" (2019) nomli qo'llanma alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda qurilish tarmog'idagi narxlashning nazariy asoslari, smeta tuzish tamoyillari va moliyaviy hisob-kitob mexanizmlari keng yoritilgan³. Muallif resurs-uslubiy narxlash usuli va uning O'zbekiston sharoitidagi qo'llanishini amaliy misollar orqali tushuntirgan.

Abdurahmonov Q. tomonidan yozilgan "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlari va narxlar tizimi" (2019) nomli monografiyada esa smetalashtirish jarayonining texnik va iqtisodiy jihatlari, davlat normativlari, narx koeffitsiyentlari va loyiha baholash mezonlari tahlil qilingan⁴. Muallif davlat ekspertizasining smetadagi o'рни va ahamiyatini chuqur asoslab bergan.

Xalqaro tajriba nuqtai nazaridan qaraganda, qurilishda narxlar shakllanishi va smeta ishi bo'yicha yetakchi davlatlardan biri Rossiyadir. U yerda "Федеральная сметно-нормативная база (ФСНБ)" keng qo'llanilib, "Гранд-Смета", "Smeta.ru" kabi elektron tizimlar orqali avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar amalga oshiriladi⁵. Rossiyalik olimlar Puchkov A.V., Nikiforov L.I., va Markov V.M. tomonidan qurilishda narxlarni tartibga solish va loyiha-smeta hujjatlarini avtomatlashtirish bo'yicha yozilgan ishlar dolzarb amaliy va metodologik asoslarni taklif qiladi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Jahon bankining infratuzilma loyihalarida smeta va narx shakllantirish bo'yicha tavsiyalari mavjud. Ular, ayniqsa, barqaror qurilish tamoyillari va yashil iqtisodiyot sharoitida narxlarni shakllantirishga urg'u beradi.

O'zbekistonning o'zida esa elektron narxlash va smetalashtirish tizimlari endigina shakllanayotgan bo'lib, bu borada "Mahalliyashtirish va import o'rnini

³"Qurilish iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. TAQI / Davletov I.X.. – Toshkent: "Ihod-Press", 2019.

⁴ Abdurahmonov Q. "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlari va narxlar tizimi" Monografiya. Toshkent: (2019)

⁵ GESN (Davlat elementlar smetasi normasi) va FER (Federal birlik narxlari). – Moskva: Gosstroy Rossii, so'nggi nashrlar (2020–2023).

bosish dasturi” doirasida ayrim ijobiy tajribalar kuzatilmoqda. Biroq xalqaro standartlar bilan taqqoslaganda, bu tizimlar hali to‘liq raqamlashtirilmagan, shaffoflik va aniqlik darajasi past bo‘lib qolmoqda⁶.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda qurilishda narxlarning shakllanishi va smeta hujjatlarini tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishda tahliliy yondashuv asos sifatida tanlandi. Mazkur metod yordamida qurilish iqtisodiyoti sohasida amalda qo‘llanilayotgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, narx belgilash mexanizmlari, resurslar bahosi va smeta tuzishning uslubiy asoslari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qurilish ishlari bo‘yicha yagona narxlar jadvallari (ENJ), texnik-iqtisodiy asoslar, materiallar va mehnat resurslarining narxlari hamda ularning smeta qiymatiga ta’siri alohida o‘rganildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qurilish me‘yorlari va qoidalari, ularni qo‘llash amaliyoti hamda smetalashtirishda qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahliliy yondashuv orqali qurilish smetalari tarkibi, tuzilishi va ularning iqtisodiy asoslanishi baholandi, amaliy misollar asosida narx shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlab berildi. Natijada, narxlarning shakllanish mexanizmini chuqur tushunish va smeta ishlarining iqtisodiy ahamiyatini asoslash imkonini beruvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qurilishda narxlar shakllanishi va smeta tuzish masalasi har bir loyihaning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi bevosita investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, qurilish siklini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi⁷. O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasida smetalashtirish ishlari amaldagi normativ hujjatlar – qurilish me‘yorlari va qoidalari (QM va Q), birlik narxlar yig‘malari (ENJ) hamda tegishli hukumat qarorlari asosida olib boriladi. Ammo tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu hujjatlarning aksariyati muntazam ravishda yangilanmaydi yoki real bozor sharoitiga to‘liq moslashtirilmagan. Buning oqibatida, smetalarda ko‘rsatilgan qiymatlar va haqiqiy sarflar o‘rtasida jiddiy tafovutlar yuzaga kelmoqda.

Narxlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish jarayonida aniqlanishicha, asosiy resurslar – qurilish materiallari, texnika, transport va mehnat resurslari qiymatlarining doimiy o‘zgaruvchanligi smetalar aniqligini

⁶ Odilov, B. “Smeta hujjatlarining shakllanishi va ular asosida narxlash tizimini takomillashtirish yo‘llari”. – “Qurilish iqtisodiyoti” ilmiy jurnali, №4, 2022.

⁷ Khalilov, A. “Smetalashtirish tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari”. – “Amaliy muhandislik va texnologiyalar” ilmiy to‘plami, №2, 2023.

kamaytirmoqda. Bundan tashqari, mahalliy bozor sharoitlari, logistika xarajatlari, import qilinadigan materiallar uchun valuta kursining o'zgarishi ham qurilish narxlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda⁸. Shunday sharoitda smetani tayyorlashda nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar, balki real vaqt ma'lumotlari, bozor tahlillari va elektron narx bazalari asosida qaror qabul qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu esa, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan smeta dasturlaridan foydalanish, real vaqtda narxlar monitoringi tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Muhokamalar davomida aniqlanishicha, qurilish tashkilotlarining katta qismi hozirda smeta ishlarini maxsus dasturlar (masalan, "Smeta.uz", *Grand Smeta*, *ABC-4*, *TurBoSMETA*) yordamida yuritmoqda, biroq bu dasturlarning o'zida ham yagona milliy integratsiyalashgan elektron narxlar bazasi mavjud emas. Har bir tashkilot o'zining mahalliy narxlari asosida ish yuritayotganligi sababli, umumlashtirilgan tahlillarni amalga oshirish qiyinlashmoqda. Smetalar ishlab chiqilishida texnik topshiriqlarning noaniqligi, loyihalash hujjatlarining yetarlicha puxta tayyorlanmasligi va qurilish hajmlarining noto'g'ri hisoblanishi tufayli byudjetdagi chiqimlar ko'payib ketayotgan holatlar kuzatilmoqda⁹.

Shuningdek, xalqaro amaliy tajriba ko'rsatmoqda-ki, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda narx shakllanishi va smetalashtirish tizimi iqtisodiy prognozlar, bozor monitoringi, loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari va tashqi risklar hisobga olingan holda yuritiladi. Bunda har bir qurilish loyihasiga kompleks yondashuv asosida individual smeta ishlab chiqiladi va uning moliyaviy-xarajat parametrlari doimiy yangilanib boriladi. O'zbekistonda ham ushbu tajribalarni amaliyotga joriy etish orqali smetalashtirish tizimini zamonaviylashtirish, loyihalarni boshqarishning raqamli shakllarini tatbiq etish va avtomatlashtirilgan tahlil mexanizmlarini joriy qilish orqali samaradorlikka erishish mumkin.

Natijaviy jihatdan olganda, smeta hujjatlarining shakllanishi va narxlarning belgilanishi jarayonini to'liq raqamlashtirish, yagona elektron platformani yaratish, bozor baholarini doimiy kuzatib borish tizimini joriy etish, me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, mutaxassislarning doimiy malaka oshirishi va tizimli monitoring olib borish orqali qurilishdagi iqtisodiy isrofgarchiliklarni kamaytirish mumkin. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan muammolarni chuqur tahlil qilish asosida aniqlanishicha, narx shakllanishi va smetalashtirish sohasida yagona axborot maydoni va shaffof, auditga ochiq tizimga ehtiyoj yuqori darajada bo'lib qolmoqda¹⁰.

⁸ Grand Smeta rasmiy sayti: <https://www.grandsmeta.ru> (rus tilidagi dasturiy ta'minot haqida ma'lumot).

⁹ BIM texnologiyalari va ular asosida smetalashtirish imkoniyatlari. – Autodesk Revit, 2022 yildagi xalqaro taqdimot materiallari. <https://www.autodesk.com>

¹⁰ Shirinov, X. "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari". – Toshkent arxitektura-qurilish instituti ilmiy to'plami, 2021.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish sohasida narxlarni shakllantirish va smeta tuzish jarayonining puxta va asosli olib borilishi tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, narxlarni shakllantirishda qo'llanilayotgan metodikalar va normativ-huquqiy hujjatlar tizimi hali ham tubdan takomillashtirishga muhtoj bo'lib, ayniqsa, bozordagi real baholar, resurslar tannarxi va mehnat xarajatlarini aniq hisobga oluvchi yondashuvlar yetarlicha joriy etilmagan. Amaliyotda smetalar ko'pincha yangilanmagan narxlar asosida tuzilayotgani natijasida qurilish ob'yektlari bo'yicha umumiy qiymatning iqtisodiy haqiqatga to'g'ri kelmasligi holatlari kuzatilmoqda. Shu bois, smeta hujjatlarini shakllantirishda zamonaviy baholash dasturlaridan keng foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda real vaqt rejimida narxlar bazasini yangilab borish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bundan tashqari, qurilish sohasidagi mutaxassislar uchun smetalashtirish va narx belgilash bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish, amaldagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va ular asosida avtomatlashtirilgan tizimlar yaratish lozim. Ushbu takliflar asosida qurilishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda investitsiyaviy loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyati ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. "Qurilish ishlarining bazaviy narxlari to'g'risida"gi nizom. – Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4427-sonli qarori. "Qurilish sohasini raqamlashtirish va smetalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – 2019 yil 23 avgust.
3. "Qurilish iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. TAQI / Davletov I.X.. – Toshkent: "Ihod-Press", 2019.
4. Abdurahmonov Q. "Qurilishda loyiha-smeta hujjatlari va narxlar tizimi" Monografiya. Toshkent: (2019)
5. GESN (Davlat elementlar smetasi normasi) va FER (Federal birlik narxlari). – Moskva: Gosstroy Rossii, so'nggi nashrlar (2020–2023).
6. Odilov, B. "Smeta hujjatlarining shakllanishi va ular asosida narxlar tizimini takomillashtirish yo'llari". – "Qurilish iqtisodiyoti" ilmiy jurnali, №4, 2022.
7. Khalilov, A. "Smetalashtirish tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari". – "Amaliy muhandislik va texnologiyalar" ilmiy to'plami, №2, 2023.
8. Grand Smeta rasmiy sayti: <https://www.grandsmeta.ru> (rus tilidagi dasturiy ta'minot haqida ma'lumot).

9. BIM texnologiyalari va ular asosida smetalashtirish imkoniyatlari. – Autodesk Revit, 2022 yildagi xalqaro taqdimot materiallari. <https://www.autodesk.com>

10. Shirinov, X. “Qurilishda loyiha-smeta hujjatlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari”. – Toshkent arxitektura-qurilish instituti ilmiy to‘plami, 2021.